



CURRENT PSYCHOLOGICAL STATE OF STUDENT YOUTH

Botirova Sayyora Yakubjonovna

Emu university "Social Sciences"

Associate Professor of the department, Doctor of Philosophy (PhD),

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18781549>

Abstract: This article analyzes the current psychological state of student youth, their views on the characteristics of significant educational influence, and scientifically based opinions. It examines the current state, problems, and possibilities of utilizing these insights in the spiritual development of the younger generation. Additionally, scientifically grounded recommendations are proposed to achieve more effective results in implementing these concepts in the educational process.

Keywords: "Express your opinion", "Try to compare", "Feel free", psychological, state, student, youth.

Yoshlar, talaba yoshlar kelajakda jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim subyektiv omili hisoblanadi. Talaba yoshlar esa jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy hodisalarga eng befarq bo'lmagan qatlam-ziyolilar qatlamining muhim a'zolari, yetakchilaridir. Ularning ongi, maqsadi, ijtimoiy ehtiyojlari, qanday qadriyatlarga amal qilayotganligi jamiyatning ijtimoiy muhitiga, kayfiyati hamda ideallariga ta'sir etadi.

Yoshlar qatlami quyidagi guruhlardan iborat: ishlovchi yoshlar, talaba yoshlar, bilim olayotgan yoshlar, ishsiz yoshlar, uyushmagan yoshlar, migrant yoshlar.

Jamiyatning barqaror rivojlanishi, avlodlarning o'zaro bog'liqligi, milliy merosning kelajakka o'tib borishi ko'p jihatdan uning a'zolari tomonidan tanlab olingan va amal qilinayotgan qadriyatlarga aloqador. Shunga ko'ra, yoshlarning aksiologik tarbiyasi, o'z hayotida qanday qadriyatlarga amal qilishi va qanday qadriyatlardan voz kechayotganligi kabi muammolarga katta e'tibor qaratish zarur. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, bugungi o'zbek talaba yoshlarining qanday qadriyatlarni afzal ko'rishi hamda ularga amal qilishi bilan bog'liq muammolarni ijtimoiy-falsafiy tahlil etish muhim nazariy va amaliy muammo hisoblanadi.

"Aksiologik oriyentatsiya" jamiyatning a'zolari, ijtimoiy guruhlari, tanlab olgan va afzal ko'radigan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy, axloqiy, estetik sohalariga tegishli bo'lgan qadriyatlar bo'lib, bu qadriyatlar ularning ijtimoiy hayotida va faoliyatida ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan, yo'naltiradigan, hayotining asosiy tamoyillariga aylanib borayotgan ijtimoiy hodisa sanaladi.

O'zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. 2023-yilning boshida yoshlarning soni 19,6 millionga yetgan bo'lib, aholining 60 foiziga teng. Yoshlar mamlakatning muhim resursi bo'lib, jamiyat va millat kelajagining qanday bo'lishi ularga bog'liq.

Yoshlar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy qatlamni tashkil etadi. Bu qatlam yoshlik davri xususiyatlari, jamiyatda egallab turgan ijtimoiy o'rni, bajarayotgan funksiyalari, o'ziga xos faoliyati bilan ajralib turuvchi etnik, ijtimoiy-demografik guruh bo'lib, u balog'atga yetish, shaxs

sifatida shakllanish davrini boshdan kechirayotgani bilan tavsiflanadi¹. Yoshlarning ijtimoiy guruh sifatida yoshini aniqlashda turli yondashuvlar mavjud. Yoshlik davrini mazkur soha mutaxassislari sotsiologlar, psixologlar, demograflar va boshqalar tomonidan, asosan, 14–16 yoshdan boshlanib, 25–30 yoshda yakunlanishi ta'kidlanadi.

Yoshlarning ta'lim olishga qaratilgan faoliyati ularning shaxs sifatida shakllanib, biror kasb-hunarni egallashga bo'lgan intilishlari, harakatlarini ifoda etadi. Psixologik nuqtai nazardan jamiyatda o'z o'rnini topish, o'zining "men"iga ega bo'lish orqali hayot mazmunini anglashga intilishi va bu jarayonlarda o'zini sinab ko'rishi kabi xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Yoshlarni tashkil etuvchi guruhning xususiyati va jamiyatda egallab turgan o'rni hamda uni alohida ijtimoiy guruh sifatida o'rganish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Bu borada qanday yondashuvga asoslanish tadqiqotning vazifasi va oldiga qo'ygan ilmiy-amaliy maqsadiga bog'liq. Ular quyidagi yondashuvlar shakllarini o'z ichiga olishi mumkin: biologik, psixologik, ijtimoiy, falsafiy, demografik va hokazo. Mazkur ijtimoiy guruhni "yoshlar" sifatida tavsiflanishi turli davrlarda o'ziga xos bo'lgan. Bu borada yosh insonlar bilan yoshi katta yoki keksa insonning chegarasini aniqlash ham turli yondashuvlar va nazariyalar asosida amalga oshirilgan². Chunki tarixiy davrning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning yosh darajasi ham turlicha bo'lgan.

Yoshlik davrini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan o'rganilganda, imkoniyat-larga to'la davr – inson hayotining evolyutsion, oddiydan murakkabga tomon dialektik tarzda bosqichma-bosqich borishi, o'z maqsad va orzulari tomon harakat qilishi asosida kelajakka qarab intilishi sifatida tushunish mumkin. Aksiologik nuqtayi nazardan inson umrining eng go'zal davri yoshlik davrining va uni boshdan kechirayotgan subyektlar – yoshlarning o'zi ham ulkan ijtimoiy qadriyatdir.

Yoshlik davri unchalik barqaror bo'lmagan, yoshlarning muntazam intiluvchanlik, biror kasbni egallashga tayyorgarlik, ijtimoiy o'rnini va ijtimoiy mavqeini egallashga harakat qilish, qadriyatlarining barqaror emasligi ko'p holatlarda norozilik hissini kuchli aks ettiradigan jihatlari inson hayotining boshqa davrlaridan ajratib turadi.

Yoshlarning mobilligi, dinamik guruh ekanligini hisobga olgan holda ularning aksiologik ongi, qadriyatlarining muntazam o'zgarib turishi hamda ularga dinamik xususiyat xosligini hisobga olinsa, ularning jamiyatda mavjud boshqa ijtimoiy guruhlar, yoshi kattalar, o'rta yoshlilar va boshqalardan, albatta, tubdan farq qilishini anglaymiz.

Yoshlar qatlamini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Ishlovchi yoshlar.
2. Talaba yoshlar.
3. Ta'lim muassasalarida o'qiydigan yoshlar.

¹ Якупова О.В. Особенности студенческой молодежи. / *Пермский государственный технический университет Пермский педагогический журнал (демо-версия)* – № 7. – С.94

² Туленова Г.Ж. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фал. фан. докт....дисс. – Тошкент, 2006; Раҳимова Т. Ёшларда миллий тафаккурни шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий асослари: Фал. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 2011; Кадырова З.Р. и др. Проблемы формирования идеологического иммунитета молодежи в процессе развития современного мировоззрения и национальной идентичности. – Ташкент, 2012;

Юлдашева Ф. Ўзбекистонда глобаллашув шароитида маънавий янгиланишнинг ўзига хос хусусиятлари: Фал. фан. докт... (DSc) дисс. – Т.: 2019. – Б.94.; Абдурахмонов Х.И. Замонавий ёшлар дунёқарашида инновацион тафаккурни шакллантиришнинг ижтимоий омиллари: Фал. фан. бўйича докт... (PhD) дисс.–Андижон, 2021; Артикова М.Б. Умумтаълим мактаби ва оила ҳамкорлиги асосида ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш: Пед. фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2020.

4. Ishsiz yoshlar.
5. Uyushmagan yoshlar.
6. Migrant yoshlar.

Sanab o'tilgan guruhlar shartli ravishda bir-biridan ajratilgan bo'lib, ular o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Mazkur guruhlariga yuqori dinamika xos bo'lib, ularga birlashgan yoshlarni jamiyatda egallab turgan ijtimoiy o'rni, roli va bajarayotgan funksiyasi bo'yicha salohiyatlilik nuqtayi nazaridan ham bir-biridan ajratish mumkin. Faylasuf olim Q.Nazarov yoshlarni quyidagicha tavsiflaydi: "Yoshlar ma'naviy dunyoqarashi shakllanayotgan, qaror topayotgan, asosiy ijtimoiy o'sishni, intensiv ijtimoiylashuv va moslashuvni, ijtimoiy va ruhiy fiziologik balog'at yoshni boshdan kechirayotgan ijtimoiy demografik guruhdir. Yoshlarning alohida ijtimoiy-ruhiy qiyofasi jamiyatning umumiy holati, ijtimoiylashuv qonuniyatlari, ta'lim-tarbiya imkoniyatlari bilan belgilanadi"³.

Yoshlik davri va yoshlarni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan o'rganish ularning ijtimoiylashuvi kontekstida amalga oshirilishi zarur. Bu jarayonda ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lgan hodisalar namoyon bo'ladi. Chunki jamiyatning a'zosi – har bir subyekt amalga oshirayotgan faoliyati hamda jamiyatning turli sohalarida ishtiroki natijasida ijtimoiylashib borishi tabiiy. Bu subyektning o'zi ham ijtimoiy faoliyati natijasida jamiyatning ma'lum jihatlarini o'zgarib borishiga ta'sir etadi. Bunday ta'sir har bir subyekt tomonidan turlicha amalga oshadi. Albatta, bu holatda uning faolligi, befarq emasligi muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar avlodlarning uzluksizligi, davomiyligi va o'zaro bog'liqligini ta'minlash orqali jamiyatning kelajagini belgilab beruvchi ijtimoiy guruhdir. "Yoshlar – obyektiv ijtimoiy hodisa, jamiyatning bir qismini tashkil etuvchi o'ziga xos katta ijtimoiy guruhdir. Shunga ko'ra yoshlar muammolari butun jamiyatning muammosi hisoblanadi. Jamiyat – yoshlar o'zaro munosabati butun va qismning dialektik aloqadorligidir: yoshlar taraqqiy etayotgan jamiyatni o'rganib, ular uchun zarur sharoitlarni yaratishimiz mumkin, yoshlarni barcha muammolari ziddiyatlari bilan tahlil etib, biz jamiyatning kelajak taraqqiyoti tendensiyalarini anglay olamiz"⁴.

Yoshlar qatlami barcha vakillarining maqsadlari, intilishlari, ehtiyojlari, ideallari o'xshash. Ularning vazifalari, xatti-harakatlari va muammolari ham bir-biriga o'xshash. "Yoshlar" kategoriyasini barcha avlodlarga nisbatan qo'llash mumkin. Ularning yoshlik davri va yoshi deyarli bir xil. Faqat avlod sifatida yoshlar turli davrlarda o'zgacha ijtimoiy-tarixiy sharoitlarni, ijtimoiy munosabatlarni boshdan kechirgan. Ular turlicha vazifalarni bajarib kelgan va jamiyatdagi roli ham davrning xususiyatidan kelib chiqib bir-biridan farq qilgan. Yoshlarga ijtimoiy guruh sifatida yondashadigan bo'lsak, ular jamiyat taraqqiyotining barcha tarixiy davrlarida ijtimoiy taraqqiyot va yoshlar bo'yicha olib boradigan davlat siyosatning asosiy obyekti bo'lib kelgan.

Adabiyotlar tahlili: Yoshlar muammosi bilan shug'ullanishda I.S.Kon "avlod" tushunchasidan foydalanadi hamda zamondoshlar, taxminan bir xil vaqtda tug'ilgan odamlar, umumiy ota-bobolardan kelib chiqqan davr bosqichi, ota-onalar va bolalar tug'ilgan davr kabi tushunchalarni ham qo'llagan edi⁵. Hozirgi kunda umuman yoshlar muammosini o'rganishga zamon talablaridan kelib chiqib, o'ziga xos yondashuvlar yuzaga kelmoqda.

³ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-қитоб. – Тошкент: Маънавият, 2019. – Б. 353.

⁴ Смирнова Л.Г. Гуманистическое содержание национально-регионального компонента молодежной политики: Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – Чебоксары, 2006. – С.3.

⁵ См.: Кон И.С. Социология личности. – М.: Политиздат, 1967. – 383 с.



Tadqiqot metodologiyasi: O'rganilayotgan muammoga yangicha, zamonaviy yondashuvlarning yuzaga kelishi hozirgi davrda yoshlar qatlamining (yoki ijtimoiy guruhining) nihoyatda ijtimoiy faollashib borayotganini

Chunki bu davrga qadar yoshlarni avlodlarning bir bosqichi, o'ziga xos ijtimoiy kuch yoki subyektiv omil tarzida tahlil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib jamiyat hayotida yoshlarning roli nihoyatda faollashgani, barcha sohalarda ularning faoliyatini ko'zga tashlanayotgani ma'lum. Bu nuqtayi nazardan ular nazariy jihatdan qaralganda, jamiyatda innovatsiya tarqatuvchi, intellektual salohiyat egalari, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol subyektiv omili sifatida tahlil etilishi lozim.

Yoshlar haqida gapirganda, ular yashagan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tarixiy davr, tarixiy makonni hisobga olish zarur. Barcha tarixiy davrlarning izi yoshlar xatti-harakati, xarakter-xususiyati, tashqi qiyofasida namoyon bo'ladi. Yoshlarning faoliyati, ehtiyojlari – bu davrning talablari va ehtiyojlari bilan bog'liq. Xususan, zamonaviy axborot texnologiyalari zamonida "... yoshlar – obyektiv ijtimoiy hodisa, jamiyatning bir qismini tashkil etuvchi o'ziga xos katta ijtimoiy guruhdir"⁶.

Tahlil va natijalar: Zamon ruhidan kelib chiqib, ularning ongi, dunyoqarashi, ehtiyojlarini to'g'ri yo'naltirish orqali dolzarb ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaslik, mavjud salohiyatini mazkur muammolarni hal etishga qaratishga yo'naltirish talab etiladi. Bunday jarayonlarning asosida to'g'ri aksiologik munosabat turadi. Chunki jamiyatda amalga oshayotgan har bir hodisa yoshlar uchun ma'lum nafaqat ijtimoiy, aksiologik ahamiyatga ega. Jamiyatda paydo bo'layotgan hamda ijtimoiy dolzarb xususiyatiga ega bo'lib borayotgan hodisalarning jamiyatga, kishilarning hayotiga ta'sir etayotganligini, ularning to'g'ri hal etilishi esa jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarining qondirilishi, mamlakatda demokratiya, insonparvarlikning tamoyillarining yanada kengroq singdirilib borishiga xizmat qilishini yoshlar tomonidan anglab yetilishi muhim bo'lib, bu holat yoshlar uchun mamlakatning jozibadorligini ham oshiradi.

Ma'lumki, ijtimoiy rivojlanishning burilish davrlarida barcha sohalarda shakllanadigan munosabatlar o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Ularni to'g'ri qabul qilish, zarur bo'lganda, ularga ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lish mazkur hodisalarning progressiv jihatlarini oshiradi, ularning tezroq tarqalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yangi ijtimoiy hodisalar va munosabatlarning mohiyatini to'g'ri anglab yetish, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularni to'g'ri yo'naltirish va ulardan maqsadli foydalanish yoshlarning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida subyektiv omil sifatidagi rolini yanada yuksaltiradi.

Xulosa: Jamiyat taraqqiyoti tobora tezlashib va murakkablashib, borgani sari bu jarayonda yuzaga kelayotgan hamda kun tartibiga qayta-qayta qo'yilayotgan muammolardan biri yoshlarning amal qiladigan qadriyatlari va ularning aksiologik oriyentatsiyasi bo'lib qolmoqda. Yoshlar aksiologik oriyentatsiyasi muammosi – insoniyat taraqqiyotining barcha tarixiy bosqichlarida hamda turli jamiyatlar hayotida doimo mavjud bo'lgan. Bu muammo mohiyatan kelajak taraqqiyotini belgilash, uning istiqbolli yo'nalishlarini, dinamikasini to'g'ri aniqlab olish muammosi sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

⁶ Смирнова Л.Г. Гуманистическое содержание национально-регионального компонента молодежной политики: Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – Чебоксары, 2006. – С.3

- 1.Якупова О.В. Особенности студенческой молодежи. / Пермский государственный технический университет Пермский педагогический журнал (демо-версия) – № 7. – С.94
- 2.Туленова Г.Ж. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фал. фан. докт....дисс. – Тошкент, 2006; Раҳимова Т. Ёшларда миллий тафаккурни шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий асослари: Фал. фан. номз.... дисс. – Тошкент, 2011; Кадырова З.Р. и др. Проблемы формирования идеологического иммунитета молодежи в процессе развития современного мировоззрения и национальной идентичности. – Ташкент, 2012;
- 3.Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси.1-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2019. – Б. 353.
- 4.Смирнова Л.Г. Гуманистическое содержание национально-регионального компонента молодежной политики: Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – Чебоксары, 2006. – С.3.
- 5.См.: Кон И.С. Социология личности. – М.: Политиздат, 1967. – 383 с.
- 6.Смирнова Л.Г. Гуманистическое содержание национально-регионального компонента молодежной политики: Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – Чебоксары, 2006. – С.3